

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924073>

LOYIHA BOSHQARUVIDA PUL OQIMLARINI TAHLIL QIISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA USLUBIY ASOSLARI

Xalilov Isomiddin Faxriddinovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi

“Loyiha boshqaruvi” yo‘nalishi tinglovchisi

e-mail: isomiddinxalilov84@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada loyiha boshqaruvida pul oqimlari tahlilining zarurligi, ilmiy asoslari, tahlil manbalari va ulardan foydalanishning uslubiy asoslari keltirilgan. Loyiha boshqaruvida pul oqimi kirimi va chiqimini hisob-kitobi, hamda ularning tarkibi, pul oqimi tahlilini uzluksiz amalga oshirish haqidagi ilmiy fikr va mulohazalar bayon qilingan.

KALIT SO‘ZLAR: loyiha, boshqaruv, moliya, pul, oqim, mablag‘, ekvivalent, usul.

OBJECTIVE NEED AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF ANALYSIS OF CASH FLOWS IN PROJECT MANAGEMENT

Xalilov Isomiddin Faxriddinovich

Bank Finance of the Republic of Uzbekistan Student of the

Academy of Project Management

e-mail: isomiddinxalilov84@gmail.com

ABSTRACT

This article presents the need for cash flow analysis in project management, its scientific basis, sources of analysis, and the methodological basis for their use. In the project management, scientific opinions and considerations about the calculation of cash flow inflow and outflow, as well as their composition, continuous implementation of cash flow analysis are described.

KEY WORDS: project, management, finance, money, flow, funding, equivalent, method.

KIRISH. Har qanday loyiha boshqaruvining samarasi pul oqimini to‘g‘ri tashkil etishini taqazo qiladi. Chunki, korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiyasi aynan loyihalarga bog‘liq bo‘lib, loyihani muvaffaqiyati esa, moliyaviy resurs va manbalarini, ya‘ni pul oqimlarining samarali boshqaruviga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Xususan, loyiha, bu belgilangan vaqt davomida smetalangan byudjet bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi, yoxud loyihani amalga oshirish yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan hujjatlar to‘plami sifatida qaraladi. Milliy iqtisodiyotimizda aynan investitsion loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar tarkibida “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish” [1] vazifasining belgilanganligi investitsiya muhitini yanada yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish, nafaqat mahalliy, balki, xorijiy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan samarali loyihalarni tayyorlash obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, loyihani boshqarishning asosiy rivojlanish tendensiyalari amaliy biznes talablari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi:

- uslubiyat va loyihalarni boshqarish vositalarining ixtisoslashganligi;
- biznesni boshqarish jarayonlarini umuman loyiha boshqaruviga yanada yaqinroq bog‘lashi.

Nazariy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, loyihani boshqarish uslubiyati va asbob-uskunalarini sohasidagi ixtisoslashuvi sezilarli darajada rivojlanmoqda. Global loyiha boshqaruvi bo‘yicha mutaxassis Russell Archibald (Russell Archibald), Lynn Krafford

(Lynne Crawford) va boshqalar loyihalarni boshqarishning yagona tasnifini va loyihalarni boshqarish yondashuvlarini asoslaydigan hujjatlarni chop etdi [Crawford, 2014]. [2]

Amerika Qo‘shma Shtatlardagi loyihani boshqarish instituti (PMI) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, davlat sektorida [PMBOK, 2015], qurilish, mudofaa va avtomobilsozlik sohasida loyihalarni boshqarish bo‘yicha maxsus standartlar ishlab chiqildi va e‘lon qilindi. Loyiha boshqaruvini biznes boshqaruv usullari va vositalarining yagona tizimiga integratsiyalashuvini ishlab chiqish dasturlari[2]ning yaratilishi, endilikda pul oqimlarini samarali tashkil etish bo‘yicha uslubiy asoslarni ham takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda..

MUHOKAMA. Loyiha boshqaruvida pul oqimi, bu pul mabla‘larining loyiha maqsadlarini ta‘minlashga qaratilgan kirimi hamda chiqimi, ya‘ni sarflanishi tushuniladi. Xususan, loyiha boshqaruvining joriy davrida pul mablag‘lari kirimi loyiha egalari hamda tashabbuskorlarining ichki imkoniyatlari hisobiga jalb qilingan pul mablag‘lari, bank kreditlari, byudjetdan olinadigan hamda xorijiy va mahalliy investorlar mablag‘lari tashkil etsa, chiqimi loyihani amalga oshirishda zarur bo‘lgan xom-ashyo materiallar, yarim tayyor fabrikalar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun, ishchi-xodimlarning mehnatiga haq to‘lash uchun to‘langan pul mablag‘lari summasi, shuningdek, belgilangan soliqlar hamda majburiy yig‘mlar uchun to‘langan mablag‘lar summalari, byudjetga jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, loyihani amalga oshirish uchun zaruriy fondlarga, investorlarga qilingan to‘lovlar, jalb qilingan bank kreditlarining jadvalga asoslangan asosiy va foiz to‘lovlari uchun qilingan sarflar tashkil etadi.

Pul oqimining yuqoridagi keltirilgan tarkibiy tasnifidan ko‘rinadiki, ushbu jarayon nafaqat murakkabligi, balki, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun uzluksiz tahlil qilib borishni zaruratga aylantiradi.

NATIJA. Loyiha boshqaruvida pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri usullari mavjud. To‘g‘ri usul - loyiha boshqaruvida “pul mablag‘lari harakatini ijobiy va salbiy farqlanishlarini aniqlashning kassa usulida hisob-kitob qilinishidir”[3].

Pul mablag‘larini to‘g‘ri usulda tahlil etishning metodologik asosi balans usuli hisoblanadi. Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

-pul qiymatliklarining davriy qiymatini hisobga olmaslik;

-pul mablag‘larini qoldiq qismini aniqlashda bog‘lanishlar quyidagi tenglikka teng:

$$\mathbf{PMdb + PMk - PMch = PMdo}$$

Bu yerda: PMdb, PMdo - pul mablag‘larining davr boshi va oxiriga qoldig‘i;

PMk-pul mablag‘lari kirimi;

PMch-pul mablag‘lari chiqimi.

To‘g‘ri usulda tahlil etishning o‘ziga xos qulaylik va imkoniyatlari mavjud bo‘lib, uning asosini buxgalteriya hisobi schetlaridagi ma’lumotlar asosida pul mablag‘larining kirimi va chiqimini hisoblashni nazarda tutadi. Ya’ni, joriy manbasi buxgalteriya hisobining schetlar rejasidagi axborotlar hisoblanadi. Pul mablag‘lari schetidagi debit va kredit aylanmalari hajmi tahlilning zaruriy manbasi hisoblanadi. Barcha schetlar bo‘yicha debet va kredit aylanmalari hajmi faoliyat turlari bo‘yicha qayta tarkiblanadi.

To‘g‘ri usulda pul mablag‘larini tahlil etish quyidagi savollarga aniq javob topish imkonini beradi [4]:

-joriy faoliyatdan keladigan pul mablag‘larini faoliyat uzluksizligini va rejalashtirilgan investitsion faoliyatni taminlashga yetarlimi yoki yetishmasligini baholash;

-moliyaviy faoliyatdan keladigan pul mablag‘larining balanslangan sifatiga erishish uchun qancha mablag‘ kerakligini hisoblash;

-asosiy, investitsion va moliyaviy faoliyatdan xarajatlar va ularning kelish manbalarini korxonada bo‘yicha jamlangan holda baholash;

-pul mablag‘lari kirimi va chiqimining ularning davr oxiriga qoldiq summalariga qay darajada ta’sir etishini baholash;

-faolit turlari bo‘yicha pul mablag‘lari tarkibiga, har bitta faoliyat turi bo‘yicha sof pul mablag‘lari sof kirimi (chiqimi)ni baholashga imkon beradi.

Loyiha boshqaruvida joriy faoliyatdan sof pul mablag‘lari kirimi (chiqimi)ning ijobi va salbiy holatlari kuzatiladi.

Ijobiy holat - korxonada faoliyatining va kelgusidagi rivojlanish strategiyasining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi. Investitsion faoliyatdan pul mablag‘larining salbiy holati uzoq muddatli aktivlarga investitsiya kiritish holatlarida kuzatiladi. Bu holat joriy davr bo‘yicha xarajatlarni ko‘paytiradi va kelgusi davrlar bo‘yicha pul tushumlarining oshishiga olib keluvchi holat sifatida baholanadi, qachonki pul oqimining samaradorligi va natijaviyligida strategik qarorlar to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa. Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larining sof harakatida ijobiy holat korxonaning kengaytirilgan faoliyatini tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirilayotganligini bildiradi. Yuqoridagilarni aks salbiy holatni ifoda etadi.

Egri usulda pul mablag‘larini tahlil etishning axborot ta‘minoti sifatida buxgalteriya balansi, metodologiya asosi tahlilning balans usuli hisoblanadi.

Mazkur usulda pul mablag‘larining kirimida balans passivi moddalarining o‘sishi va aktiv moddalarning kamayishi, pul mablag‘lari chiqimida balans aktiv moddalarining ko‘payishi va passiv moddalarining kamayishini xarakterlaydi.

Pul mablag‘lari ko‘payishida asosiy manba loyiha bo‘yicha joriy davr foydasi va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

XULOSA. Loyiha boshqaruvida pul oqimining samarali tashkil etilishi yuzasidan qarorlar qabul qilishda pul mablag‘larining kirimi va chiqimini uzluksiz tahlil qilib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, mavjud amaliyotda loyiha tuzilishi davrida pul oqimining samaradorligini oldindan aniqlashning diskontlash konsepsiyasi hamda diskontlanmagan konsepsiyasi yordamida pul oqimi samaradorligini bashoratlash bilan cheklanib qolmasdan, tom ma‘noda pul mablag‘larining harakati natijalarini loyiha amalga oshirilayotgan joriy davrda ham tahlil qilib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoniga 1-ilova. www.lex.uz.

2. O.Sh.Mamanazarov. Loyiha boshqaruvi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Ijod Preess. 2019. 26-b.

3. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili.T.: Moliya –iqtisod, 2015.-316 b.

4. K.R.Subramanyam. FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION. Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by.